


**Navoiy viloyatida
o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi**
2025-yil yanvar-dekabr oylari uchun (dastlabki ma'lumotlar)

- I. O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining yillar bo'yicha o'zgarishi dinamikasi.
- II. Hududlar bo'yicha o'rtacha oylik nominal ish haqi.
- III. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi.
- IV. O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha dinamikasi.
- V. O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar.

**I. O'rtacha oylik nominal hisoblangan
ish haqining yillar bo'yicha o'zgarishi dinamikasi**

Navoiy viloyatida 2025-yil yanvar-dekabr oylarida o'rtacha oylik ish haqi 7 871,6 ming so'mni tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 16,0 % ga o'sgan.

Yillar kesimda o'rtacha oylik ish haqi, ming so'm



Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi \(choraklik\)](#)

[Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi \(yillik\)](#)

[O'rtacha hisoblangan oylik ish haqi \(choraklik\)](#)

[O'rtacha hisoblangan oylik ish haqi \(yillik\)](#)

II. Hududlar bo'yicha o'rtacha oylik nominal ish haqi miqdori

Hududlar bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi miqdori to'g'risidagi ma'lumotlar 2025- yilning yanvar-dekabr oylari uchun keltirilgan bo'lib, 2024- yilning mos davri bilan taqqoslangan.

	Ming so'm	O'sish sur'ati, % da
Navoiy viloyati	7 871,6	116,0
Navoiy shahri	8 417,1	114,7
Zarafshon shahri	10 949,9	111,1
G'ozg'on shahri	3 872,4	117,2
Karmana tumani	5 920,6	122,7
Konimex tumani	8 543,5	116,4
Qiziltepa tumani	3 460,4	117,1
Navbahor tumani	3 907,1	121,6
Nurota tumani	3 532,0	117,2
Tomdi tumani	5 211,0	129,0
Uchquduq tumani	11 969,5	114,8
Xatirchi tumani	3 709,2	120,1

Hududlar kesimida o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqlari Uchquduq tumani 11 969,5 ming so'mni tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 14,8 % ga o'sganligi kuzatildi.

Shuningdek, bu ko'rsatkich Tomdi tumanida 5 211,0 ming so'mni (129,0%), Karmana tumanida 5 920,6 ming so'mni (o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 122,7%), Navbahor tumanida 3 907,1 ming so'mni (121,6%), Xatirchi tumanida 3 709,2 ming so'mni (120,1%), G'ozg'on shahrida 3 872,4 ming so'm (117,2%), Nurota tumanida 3 532,0 ming so'mni (117,2%), Qiziltepa tumanida 3 460,4 ming so'mni (117,1%) va Konimex tumanida 8 543,5 ming so'mni (116,4%) ni tashkil etgan.

O'z o'rnida, o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi Zarafshon shahrida 10 949,9 ming so'mni (111,1%), Navoiy shahrida 8 417,1 ming so'm (114,7%) hamda Uchquduq tumanida 11 969,5 ming so'm (114,8%) ni tashkil etib, boshqa hududlarga nisbatan o'sish sur'ati pastroq ekanligi kuzatildi.

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi \(choraklik\)](#)

III. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'rtacha oylik nominal ish haqi miqdori haqida ma'lumotlar 2025- yilning yanvar–dekabr oylariga oid bo'lib, 2024- yilning mos davriga nisbatan taqqoslangan. Bu taqqoslash orqali sohalar kesimida farqlar va o'zgarishlar tahlil qilindi.

Iqtisodiy faoliyat turi nomi	Ming so'm	O'sish sur'ati, %da
Sanoat	11 107,4	114,5
Qurilish	8 327,5	112,5
Savdo	4 485,3	118,8
Tashish va saqlash	5 981,1	115,2
Yashash va ovqatlanish	2 179,7	108,2
Axborot va aloqa	8 231,7	109,1
Bank, sug'urta, lizing, kredit va vositachilik faoliyati	14 242,1	107,4
Ta'lim	4 161,9	117,7
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	3 966,2	118,2
San'at, ko'ngil ochish va dam olish	3 723,7	119,2
O'rtacha	7 871,6	116,0

O'rtacha oylik nominal ish haqi iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tahlil qilinganida eng yuqori o'sish sur'atlari sa'nat, ko'ngil ochish va dam olish sohasida qayd etilganligi, xususan, bu sohada 2024- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 119,2% ni, ish haqi miqdori esa 3 723,7 ming so'mga yetganligi kuzatildi.

Shuningdek, savdo yo'nalishida 4 485,3 ming so'mni tashkil etib, 18,8% ga, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish sohasida ham sezilarli o'sish sur'ati kuzatilib, ish haqi miqdori 3 966,2 ming so'mni tashkil etib, o'sish 18,2% ga hamda ta'lim sohasida 4 161,9 ming so'mni tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 17,7% ga oshganligi kuzatildi.

Shu bilan birga, bank, sug'urta, lizing, kredit va vositachilik faoliyati sohasida 14 242,1 ming so'mni tashkil etib, 7,4% ga, yashash va ovqatlanish sohasida esa 2 179,7 ming so'mni tashkil etib, 8,2% ga, axborot va aloqa sohasida 8 231,7 ming so'mni tashkil etib, 9,1% ga, qurilish sohasi bo'yicha 8 327,5 ming so'mni tashkil etib, 12,5% ga, sanoat sohasida o'rtacha ish haqi 11 107,4 ming so'mni tashkil etib, 14,5% ga va tashish va saqlash sohasida ish haqi miqdori 5 981,1 ming so'mni tashkil etib, 15,2% ga o'sgan bo'lsada, boshqa tarmoqlarga nisbatan o'sish sur'ati pastroq ekanligi kuzatildi.

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:


[Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi \(choraklik\)](#)

IV. O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha dinamikasi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'rtacha oylik ish haqi miqdorining so'nggi besh yildagi o'zgarishi tahlil etilganida, 2025- yilning 4-choragida bank, sug'urta, lizing, kredit va vositachilik sohasida ish haqi miqdori 14 242,1 ming so'mni tashkil etib, 2021- yilning mos davriga nisbatan 6 719,6 ming so'mga oshganligi kuzatildi.


Shuningdek, so'nggi besh yilda axborot va aloqa sohasi bo'yicha ish haqi miqdori 5 141,6 ming so'mga, sanoat sohasida 4 273,4 ming so'mga, qurilish sohasida 3 255,8 ming so'mga, tashish va saqlash sohasida 3 057,2 ming so'mga hamda savdo sohasida 2 165,2 ming so'mga ko'payganligi kuzatildi.

O'rtacha oylik ish haqining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'zgarish dinamikasi, ming so'm




Sanoat sohasida o'rtacha oylik ish haqi 11 107,4 ming so'mni tashkil etgan bo'lsa, uning tarkibi bo'yicha o'rtacha oylik ish haqi miqdori tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sohasida 12 085,8 ming so'm, ishlab chiqarish sanoati sohasida 11 208,3 ming so'm, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida 9 877,4 ming so'm hamda suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish sohasida 5 925,2 ming so'm ekanligi kuzatildi.

Sanoat sohasida ish haqi miqdorining o'zgarish dinamikasi, ming so'm




Savdo sohasida o'rtacha oylik ish haqi 4 485,3 ming so'mni tashkil etgan bo'lsa, uning tarkibi bo'yicha o'rtacha oylik ish haqi miqdori avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta'mirlash tarmog'i 5 677,9 ming so'mni, avtomobil va mototsikllarning savdosidan tashqari ulgurji savdo 5 166,8 ming so'mni hamda avtomobil va mototsikllarning savdosidan tashqari chakana savdo sohasi 4 117,3 ming so'mni tashkil etgan.

Savdo sohasida ish haqi miqdorining o'zgarish dinamikasi, ming so'm




Tashish va saqlash sohasida o'rtacha oylik ish haqi 5 981,1 ming so'mni tashkil etgan bo'lsa, uning ayrim sohalari bo'yicha o'rtacha oylik ish haqi miqdori ombor xo'jaligi va yordamchi transport faoliyatida 7 022,7 ming so'mni, quruqlikdagi va quvur transporti faoliyatida 5 779,4 ming so'mni hamda pochta va kuryerlik faoliyati sohasida 3 737,5 ming so'mni tashkil etgan.

Tashish va saqlash sohasida ish haqi o'zgarishi dinamikasi, ming so'm




Axborot va aloqa sohasida o'rtacha oylik ish haqi 8 231,7 ming so'mni tashkil etgan bo'lsa, uning ayrim sohalari bo'yicha o'rtacha oylik ish haqi axborot xizmati ko'rsatish 10 183,7 ming so'mni, aloqa sohasi 8 586,6 ming so'mni va kompyuter dasturlashtirish, maslahat berish va boshqa yordamchi xizmatlar sohasida 2 586,0 ming so'mni tashkil etgan.

Axborot va aloqa sohasida ish haqi o'zgarishi dinamikasi, ming so'm




Bank, sug'urta, lizing, kredit va vositachilik sohasida o'rtacha oylik ish haqi 14 242,1 ming so'mni tashkil etgan bo'lsa, uning tarkibi bo'yicha o'rtacha oylik ish haqi sug'urtalash va nafaqa ta'minotidan tashqari moliyaviy xizmatlar sohasida 14 311,3 ming so'mni hamda majburiy ijtimoiy sug'urtalashdan tashqari, qayta sug'urtalash va nafaqa jamg'armalari faoliyati sohasi 12 064,5 ming so'mni tashkil etgan.

Bank, sug'urta, lizing, kredit va vositachilik sohasida o'rtacha oylik ish haqi,
ming so'm



Ta'lim sohasining asosiy tarmoqlari bo'yicha o'rtacha oylik ish haqi, ming so'm

Ta'lim sohasida o'rtacha oylik ish haqi 4 161,9 ming so'mni tashkil etgan bo'lsa, uning tarkibi bo'yicha o'rtacha oylik ish haqi oliy ta'lim sohasida 9 447,5 ming so'mni, texnik va professional ta'lim 4 829,0 ming so'mni, umumiy o'rta ta'lim 4 138,3 ming so'mni va maktabgacha ta'lim sohasi 2 728,1 ming so'mni tashkil etgan.



Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi \(choraklik\)](#)

V.O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha o'rtacha oylik ish haqi to'g'risidagi ma'lumotlar korxona va tashkilotlar tomonidan elektron shaklda, onlayn tarzda taqdim etilgan statistika hisobotlari ma'lumotlari asosida kichik korxonalar, mikrofirmalar va qishloq xo'jaligi korxonalarisiz shakllantirilgan.

Respublikaning barcha korxona va tashkilotlari, jumladan kichik korxonalar, mikrofirmalar, fermer xo'jaliklari bo'yicha o'rtacha oylik ish haqi to'g'risidagi ma'lumotlar yilda bir marotaba shakllantirilib, e'lon qilinadi.

Ma'lumot uchun: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2014-yil 7-apreldagi PF-4609-son Farmoniga muvofiq, kichik tadbirkorlik sub'ektlari va fermer xo'jaliklari statistika hisobotlarini statistika idoralarga yilda bir marotaba taqdim etishi belgilangan.

Nominal hisoblangan ish haqi – ma'lum bir davr (soat, oy, yil) mobaynida xodim tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulot (bajarilgan ish yoki ko'rsatilgan xizmat) evaziga ish beruvchilar tomonidan, amaldagi qonun hujjatlariga asoslangan holda soliq va boshqa to'lovlarni o'z ichiga oluvchi yollanma xodimning mehnatiga haq to'lash tarzida jismoniy shaxsga pul shaklida hisoblangan daromadlardan iborat.

Hisobot oyi uchun nominal hisoblangan ish haqi quyidagicha hisoblanadi:

$$W_n = \frac{F}{L}$$

bunda:

W_n – nominal hisoblangan ish haqi;

F – hisobot oyi uchun jismoniy shaxslarga hisoblangan mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlar;

L – hisobot oyi uchun xodimlarning o'rtacha soni;

Nominal hisoblangan o'rtacha oylik ish haqini hisoblash O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasining 2025-yil 30-maydagi 8-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Iqtisodiyotda ish haqi miqdorini baholash bo'yicha uslubiy nizom"ga muvofiq amalga oshiriladi.

Metama'lumot uchun havola:

<https://lib.stat.uz/uz/features/demografiya-va-mehnat/1018-milliy-gender-statistikasi-ko-rsatkichlarini-shakllantirish-bo-yicha-uslubiy-nizom-2>

Tayyorlash uchun mas'ul:
Demografiya, mehnat va gender
statistikasi bo'limi

Ijrochi:
D.Abdimurodov
79 222-80-00 (8570)

Manzil:
Navoiy shahri,
A.Temur ko'chasi, 4-uy